

MOLYUSKALAR

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi

JDPU, Biologiya va uni o`qitish metodikasi kafedrasida o`qituvchisi

Abduvahobova Dildora O'ktam qizi

2 – bosqich talabasi

Yer yuzida hayvonot dunyosi shunchalik xilma – xilki, sanab adog`iga yetolmaysan kishi. Shunchalik ko`p bo`lishiga qaramasdan, ekologik muhitda har bir tirik organizmning o`z o`rni, ahamiyati mavjud. Shunday rang barang, xilma – xil turlarni o`z ichiga oladigan yirik tiplardan biri molluskalar tipidir.

Mollyuskalar xilma-xil tuzilgan eng qadimgi hayvonlar guruhi hisoblanadi. Ko'pchilik mollyuskalar bilateral simmetriyalik hayvonlar. Bir qancha turlarida organlarning joylanishi o'zgarib, tana simmetriyasi ikkilanib tuzilib, assimetrik shaklga kiradi. Ko'pchilik mollyuskalarning tanasi bo'g'imlarga bo'linmagan. Faqat tuban tuzilgan mollyuskalarda metamerlik tuzilishga xos bo'lgan belgilarni ko'rish mumkin. Tanasi bosh, gavda va oyoq deb ataladigan uch bo'limdan iborat. Faqat ikki tavaqali mollyuskalarda bosh bo'limi bo'lmaydi. Harakatlanish organi qorin devoridan hosil bo'lgan yagona o'simtadan iborat. Mollyuskalar haqida yana ko'proq bilish maqsadida tok shillig'i misolida tanishib chiqamiz.

Dunyo – hayvon – Zoa

Kenja dunyo – ko`p hujayralilar – Metazoa

Bo`lim – haqiqiy ko`p hujayralilar – Eumetazoa

Tip – Mollyuskalar – Mollusca

Kenja tip – Chig'anoqlilar – Conchifera

Sinf – Qorinoyoqli mollyuskalar – Gastropoda

Turkum – Poyachako'zlilar – Stylommatophra

Turlar – Tok shillig'i – Helix promatia

Tok shillig'i tok va o`rmonzorlarda yashaydi, o`simliklarning barglari bilan oziqlanadi. U quruqlikda yashovchi mollyuskalarning eng yirigi bo`lib, chig`anog`ining balandligi 45 mm, kengligi 47 mm, shakli minoraga o`xshaydi. O`ng tomonga qarab 4 ta asta – sekan kengayib boruvchi aylanma hosil qiladi. Aylanmalarni bir biridan ajratib turuvchi yo`llari chok deb ataladi.

Chig`anoq bo`shlig`iga kiradigan teshik chig`anoq og`zi deb ataladi. Chig'anoq bo`shlig`ida og`zidan cho`qqigacha ustuncha joylashgan. Bu ustunchada tanani chig`anoqqa bog`lovchi muskul joylashgan. Tok shillig'i harakat qilish davrida boshi va oyog`ini chig`anoq og`zi orqali tashqariga chiqarib qo`yadi. Umuman tanasi bosh, haqiqiy gavda va oyoq qismlaridan iborat. Boshning old qismida og`iz teshigi va uning ikki yonida kalta lab paypaslagichlari joylashgan bo`lib, sezish vazifasini o`taydi. Boshning yuqori tomonida 2 ta uzun ko`z paypaslagichlari bo`lib, ularning uchlarida kichik ko`zchalari

joylashgan. O`ng tomonidagi ko`z paypaslagichining ostida jinsiy teshik bor. Chig`anoq og`zining yaqinida nafas olish va anal teshiklari joylashgan bo`ladi. Tananing ikkinchi bo`limi bo`lgan oyoq keng, yassi va oval shaklda bo`ladi. Gavda bo`limi yoki vitseral xaltasi chig`anoq buramasiga qarab, o`ng tomonga qarab burama shaklida o`ralgan. Birinchi o`ramasini jigar egallagan. Mantiya buramasi ostida nafas olish, qon aylanish sistemasi va buyrak ko`rinib turadi. Orqa tomonida mantiya bo`shlig`ida yurak yotadi. Yurak – yurak oldi bo`lmasidan va qorinchasidan iborat bo`lib, tiniq xaltacha perikardiy ichiga joylashgan. Mantiya bo`shlig`ida mantiya devorlarida qon tomirlari shoxlanib nafas olish organlarini xosil qiladi. Tomirlari devori orqali qon bilan havo o`rtasida gaz almashinuvi ro`y beradi. O`pka qon tomirlari o`pka venasiga yig`ilib, yurakka boradi. Yurak oldi xaltachasining o`ng tomoniga kelib buyrak tutashadi. Ular eng yuksak tuzilgan qorinoyoqlilar hisoblanadi. Paypaslagichlari ikki juft bo`lib, ko`zlari ikkinchi juft papaslagichlarining uchki qismida joylashgan. Paypaslagichlar hid bilish vazifasini bajaradi. Tok shillig`ini chig'anog'i yaxshi rivojlangan bo`ladi. U asosan o'simliklarning yashil qismlari bilan oziqlanib, katta ziyon yetkazadi.

Ko'pchilik olimlar e'tirof etgan Nef ta'limotiga ko'ra, qorinoyoqli molyuskalar suzib yurishdan o'rmalab harakat qilishga o'tishi assimetriyaning kelib chiqishiga olib keldi. Chunki tanasining oldingi tomonida joylashgan chig'anoq molyuskani harakatlanishiga imkon bermas edi. Xuddi shu sababdan hozirgi qorinoyoqli molyuskalar chig'anog'i va mantiya kompleksining 180 gradusga burilishi, ular lichinchasining suzib yurishdan o'rmalab yurishga o'tishi davrida sodir bo'ladi. Bunday burilish jarayoni tufayli chig'anoqning uchun molyuska tanasining keyingi tomoniga o'giriladi va uning o'rmalashiga halaqit bermaydi. Bir qancha qorinoyoqlilar o'rmalab harakat qilishdan suzishga o'tgan. Bunday molyuskalarining chig'anog'i reduksiyaga uchragan yoki yo'qolib ketgan, oyog'i esa toq suzgichga yoki bir juft qanotsimon eshkakka aylangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mollyuskalar o'zining xilma xil turlarga boyligi bilan ajralib turuvchi organizmlar hisoblanadi. Bu turdagi organizmlar tuzilishi jihatidan ham boshqa hayvonlarda farq qiladi. Ular nafaqat chiroyli ko'rinishga ega, balki ulardan oziq ovqat sifatida ham foydalansa bo'ladi. Bir qancha turlari Yevropa mamlakatlarida iste'mol qilinadi. Ayrim dengiz qorinoyoqli molyuskalari, masalan, trubach sohil shillig'ini ham iste'moq qilsa bo'ladi. Bu turlarning ichida poliz ekinlariga zarar keltiradigan turlari ham mavjud. Ulardan ehtiyot bo'lish kerak chunki, o'simliklarga katta ziyon yetkazishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. D.E.Azimova., Y.E.Ikromova., U.Shakarbayev “Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi” T.”Lesson – press” nashryoti 2021 – yil.

2. Y.E.Ikromova., D.E.Azimova “Umurtqali hayvonlar zoologiyasi” nomli o`quv qo`llanma.

Salijanovna, I. S., Sherbabayevna, H. Q., Rahmanova, M. Y., Nabibullayevich, X. F., & O`G`Li, A. I. N. (2022). O`SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODGA TA`LIMIY

VA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI TA'LIM BERISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Science and innovation*, 1(B3), 18-22.

Mirzakhililovich, Y. M., Nabibullaevich, K. F., & Abdulazizovna, K. B. (2021). Ecological-geographical distribution of aphids (homoptera aphidinea, aphididae) in the Fergana valley.

Юнусов, М. М., & Хабибуллаев, Ф. Н. (2021). Қаттиққанотлиларни йиғиш ва улардан коллекциялар тайёрлаш. *Scientific progress*, 1(4), 103-107.

Хабибуллаев, Ф., Осбаев, М. У., & Маматкулова, М. Т. (2017). Особенности иммунной системы слизистой оболочки тонкой кишки. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-6), 137-141.

Xabibullayev, F. (2022, December). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE ART OF STATUS AND TODAY. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 157-158).

Хабибуллаев, Ф. Н. (2019). Охрана и использование полезных насекомых. *Молодой ученый*, (21), 55-58.

Хабибуллаев, Ф. Н. ҲАШАРОТЛАРНИ ОДАМ ВА ТАБИАТ ҲАЁТИДАГИ РОЛИ. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети, 197.